



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



## DAVLAT TILINI O'QITISHDA MATN BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Razzakova Muqaddas Nurumbetovna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasи*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi, samarali o'qitish usullari va topshiriqlar orqali bu ko'nikmalarni yanada mustahkamlash mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** matn bilan ishlash, ta'lim, ko'nikma shakllantirish, o'quvchilar, o'qitish usullari, ta'lim samaradorligi.

Bugungi kunda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeい mustahkamlanib borayotgan bir sharoitda, uni o'rgatish metodikasi ham doimiy izlanish va takomillashtirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish davlat tilini o'rgatish jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Chunki til - bu aloqa vositasi bo'lishi bilan birga, fikrni ifodalash, tushunish va anglash vositasidir. Matn esa ushbu fikrlarni muayyan kontekstda, aniq shaklda ifoda etadigan asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchining tilni o'zlashtirish darajasi, ko'pincha, uning matnni tushunish, uni tahlil qilish va unga munosabat bildira olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli o'quvchi bilan ishlashda matn markazi o'ringa ega bo'lishi zarur. Ammo bu jarayon oddiy o'qish yoki yod olish bilan chegaralanmasligi kerak. Matn bilan ishlash deganda, uni o'qish, tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, qayta ifodalash va hatto yangi matn yaratish kabi kompleks faoliyatlar tushuniladi. Bunday faoliyatlar orqali o'quvchi nafaqat tilni o'rganadi, balki tanqidiy fikrlash, muloqot, nutq madaniyati, ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarni ham egallaydi.

Matn tanlashda esa, o'quvchilarning yoshiga, bilim saviyasiga, qiziqish doirasiga e'tibor berish lozim. Darsda foydalaniladigan matnlar o'quvchi hayotiga yaqin, u uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak. Bunday matnlar o'quvchining fikrlashiga turki beradi, unda savollar tug'diradi va muloqotga undaydi. Shu bilan birga, matnlar orqali o'quvchi tilning turli qatlamlarini, uslublarini, ifoda vositalarini ham amaliy misollar asosida o'rganadi.

Ko'pincha darslarda faqat matnni o'qitish yoki so'zlarni tushuntirish bilan cheklanib qolish holatlari uchraydi. Aslida esa, har bir matn imkon qadar faol o'quv jarayoniga aylanishi kerak. O'quvchiga matn asosida savollar berish, unga asoslanib o'z fikrini bayon qilish, matn tarkibidagi tildan namunalar topish, grammatik tahlil qilish, mazmunini qayta ifodalash kabi topshiriqlar berilishi muhim. Bu orqali matn "o'qilgan" emas, "o'zlashtirilgan" bo'ladi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Yana bir muhim jihat - bu o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Matn bilan ishslash o‘quvchining tanqidiy yondashuvini rivojlantiradi, unda savol berish, asosli fikr yuritish, munosabat bildirish kabi ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ayniqsa, matn asosida muhokama qilish, bahs-munozara uyushtirish, esse yozish kabi faol usullar o‘quvchilarning davlat tilida erkin va to‘g‘ri fikr bildirish malakasini oshiradi.

Albatta, bu kabi yondashuvlar o‘qituvchidan ham yangicha fikrlash, darsni innovatsion metodlar asosida tashkil etishni talab qiladi. Har bir matnga metodik nuqtai nazardan yondashish, u orqali qanday maqsadga erishmoqchi ekani, qanday til birliklarini o‘rgatmoqchi ekani va qanday ko‘nikmalarni shakllantirishni aniq belgilash zarur. Zero, matn - bu nafaqat til o‘rgatuvchi vosita, balki ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning ham kuchli manbaidir.

Xulosa qilib aytganda, davlat tilini o‘qitishda matn bilan ishslash ko‘nikmasini shakllantirish - bu oddiy mashg‘ulot emas, balki til o‘rgatishning zamonaviy, integrativ va natijaviy usulidir. Har bir matn - bu imkoniyat. Bu imkoniyatdan to‘g‘ri foydalana bilgan o‘qituvchi o‘quvchiga nafaqat tilni, balki tafakkur, nutq, madaniyat, ma’naviyatni ham o‘rgatadi.

Biz ushbu maqolada matn bilan ishslash bo‘yicha bir nechta tavsiyalar bermoqchimiz.

1-MATN. Olimlar sayyoramizdagi ilk tirik mavjudotlar suvda paydo bo‘lganini ta’kidlashadi. Million yillardan buyon suv tiriklik evolyutsiyasiga ham, Yer sayyorasining geografik shakliyu, iqlim o‘zgarishlariga ham beqiyos ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Suvsiz hayot yo‘q. Uni insoniyat ko‘z qorachig‘idek asrashga majbur.

Sayyoramizdagi toza ichimlik suvi zaxirasini asrash, undan oqilona foydalanish, sanoat va ishlab chiqarish jarayonini tabiatga zarar yetkazmaydigan tarzda “ekologik toza” innovatsion uslublar bilan yo‘lga qo‘yish va turli ta’lim usullaridan foydalanib, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish kabi dolzarb muammolarga insoniyat e’tiborini qaratish maqsadida har yili 22-mart – Butunjahon suv zaxirasi kuni sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida nishonlanadi.

“Butunjahon suv zaxirasi kuni”ni nishonlash taklifi dastlab 1992-yilda BMTning “Atrof-muhitni himoya qilish va rivojlanish” mavzuidagi xalqaro konferentsiyasida ilgari surilgan. 1993-yil 22-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining bu haqdagi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilingan.

Rezolyutsiyada barcha ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat suv va uning sifatiga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lgani holda, ushbu masalaga yetarlicha e’tibor qaratilmayotgani, aholi sonining o‘sishi, shuningdek, ko‘plab davlatlarda iqtisodiy faoliyatning kengayishi natijasida isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilayotgani, suv zaxiralarini asrashga, undan tejamkorlik bilan foydalanishga jamiyatni mahalliy, milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada ogohlikka chaqirish zarurati vujudga kelgani qayd etilgan.

Shundan so‘ng har yili 22-martda suvning ahamiyati va undan oqilona foydalanish bo‘yicha dunyo miqyosida turli tadbirlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Tadbirlar har yili muayyan dolzarb mavzuga bag‘ishlanadi. 2014-yilda “Suv va energiya”, 2015-yilda “Suv





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



va barqaror rivojlanish”, 2016-yilda “Suv zaxirasi va aholi bandligi”, 2017-yilda “Nima uchun oqova suvlar?”, 2018-yilda “Tabiat va suv”, 2019-yilda “Hech kimni orqada qoldirmaslik” mavzularida keng ko‘lamli anjumanlar o‘tkazilgan bo‘lsa, 2020-yil uchun BMT tomonidan “Suv va iqlim o‘zgarishlari” mavzusi tanlandi.

Albatta, uchdan ikki qismi suvdan iborat sayyoramizda global isish, “issiqxona effekti”, cho‘llanish kabi iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq muammolarni hal etishda suvning ahamiyatini va ta’sirini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Iqlim o‘zgarishiga doir muammolarning kelib chiqishi suvning ifloslanishi va sho‘rlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, suv sayyoramizdagi iqlim barqarorligini belgilab beradi.

Ta’kidlash o‘rinlikni, sayyoramiz ekotizimida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan suv zaxiralariga insoniyatning salbiy ta’sirini cheklash orqali nafaqat iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq, balki boshqa ko‘plab global muammolarni ham hal etish mumkin. Ammo sanoat va ishlab chiqarishning kengayishi natijasida bu salbiy ta’sir yildan yilga kuchaymoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi kunda deyarli 80 foiz oqova suvlar tozalanmasdan daryo va dengizlarga, hatto chuchuk suv havzalariga oqizilmoqda. Bugungi kunda dunyo aholisining 29 foizi toza ichimlik suvi yetishmaslidan aziyat chekayotganini, har kuni mingga yaqin bolalar toza ichimlik suvi iste’mol qilmaslik va yomon sanitar-gigienik sharoitlarda yashash natijasida vafot etayotganini ko‘z oldimizga keltirsak, oldimizda turgan muammoning ko‘lамини yanada teranroq anglaymiz.

Yuqoridagi matn asosida 7-8-sinf o‘quvchilari uchun turli xil (test, esse, savol-javob, lug‘at ishlash va boshqalar) topshiriqlar tuzilgan. Topshiriqlar matn mazmunini chuqurroq anglashga va o‘rganilganlarni amaliy qo‘llashga qaratilgan.

### **1. Matn bo‘yicha qisqacha savollar (test va ochiq savollar)**

#### **A. Test savollari**

1. Sayyoramizdagi ilk tirik mavjudotlar qayerda paydo bo‘lgan?

- a) Quruqlikda
- b) Suvda
- c) Havoda
- d) Tog‘larda

2. Butunjahon suv zaxirasi kuni qaysi sanada nishonlanadi?

- a) 22-yanvar
- b) 22-fevral
- c) 22-mart
- d) 22-aprel

3. Quyidagilardan qaysi biri suv zaxiralarini asrash uchun muhim omil hisoblanadi?

- a) Sanoat va ishlab chiqarishni kengaytirish
- b) Suvdan isrof qilmaslik
- c) Oqova suvlarni tozalamasdan daryolarga oqizish
- d) Suv havzalarini ifoslantirish





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



### **B. Ochiq savollar**

1. Suv nima uchun hayot uchun juda muhim hisoblanadi?
2. Butunjahon suv zaxirasi kuni tashkil etilishining asosiy maqsadi nima?
3. Suv resurslari va iqlim o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
4. Oqova suvlarning tabiiy suv havzalariga ta'siri qanday oqibatlarga olib keladi?

### **2. Lug'at bilan ishlash**

Quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlang va o'z so'zlariningiz bilan gapda qo'llang:

- evolyutsiya
- ekologik madaniyat
- innovatsion uslublar
- rezolyutsiya
- sho'rланish
- isrofgarchilik

### **3. Esselar yozish**

#### **Mavzular:**

1. Suvning hayotdagi ahamiyati haqida fikr yuriting.
2. Butunjahon suv zaxirasi kunining nishonlanishining ijtimoiy va ekologik ahamiyati haqida esse yozing.
3. Suvni asrash uchun har bir inson qanday choralar ko'rishi kerakligini bayon qiling.

### **4. Matn mazmunini qisqacha yozish**

Berilgan matnni o'zingiz tushungan tarzda 5-6 jumlada qayta ifodalang.

### **5. Matn asosida munozara savollari**

1. Sizningcha, nega sanoat va ishlab chiqarish suv zaxiralarining qisqarishiga sabab bo'lmoqda?
2. Butunjahon suv zaxirasi kunini nishonlash orqali odamlarning suv bilan bo'g'liq muammolarga e'tibori oshadimi? Nima uchun?
3. Iqlim o'zgarishi va suv resurslari o'rtasidagi bog'liqlikni kundalik hayotdan misollar bilan tushuntiring.

### **6. Matn asosida kichik guruhsda ishlash**

- Har bir guruhga matnning bir bo'limi berilsin. Guruhrar o'z bo'limlarini o'qib, boshqalarga tushuntirsin.
- Suv resurslarini asrash uchun innovatsion g'oyalar haqida guruhsda fikr almashilsin.
- Suv ifloslanishi muammosini hal etish uchun muktabda qanday tadbirlar o'tkazish mumkinligini muhokama qiling.

### **7. Illyustratsiya va grafik ishlash**

- Suv zaxiralari kamayishi, suv ifloslanishi va iqlim o'zgarishlari mavzularida infografika yoki plakat tayyorlang.
- "Butunjahon suv zaxirasi kuni" mavzusida qisqa prezentatsiya tayyorlab, sinfda taqdimot qiling.





### **8. Qo'shimcha ijodiy topshiriq**

- “Suv — hayot manbai” mavzusida she'r yoki hikoya yozing.
- Suvni tejash va asrash bo'yicha 5 ta oddiy qoida tuzing va uni uyda yoki maktabda amalga oshiring.

Suv bilan bog'liq mazkur matn asosida tuzilgan turli xil topshiriqlar o'quvchilarining bilimlarini mustahkamlash, matnni chuqurroq anglash va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Test savollari orqali o'quvchilar asosiy ma'lumotlarni tez va aniq qabul qilishga o'rgansa, ochiq savollar ularda fikr yuritish va ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Lug'at bilan ishslash so'z boyligini oshirsa, esse yozish va munozara kabi ijodiy vazifalar mantiqiy fikrlash, tanqidiy qarash va fikr almashish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Guruhlarda va ijodiy ishlarda hamkorlik esa ijtimoiy faoliyatga tayyorlaydi.

Bunday topshiriqlar ekologik mavzularni o'rganish bilan birga, atrof-muhit muhofazasi va suv resurslarini asrash masalalariga yoshlarning e'tiborini jalb qiladi. Shu tariqa, o'quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo'lib qolmay, balki hayotda yuzaga kelayotgan global muammolarni anglab, ularni hal etishga faol ishtirok etishga tayyor bo'ladi. Bu esa kelajak avlodning atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: 2018
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Monografiya. T.: O'qituvchi, 1996, 192 bet.
3. Yo'ldoshev Q. Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent.: Kamalak, 2016, 462 bet.

